

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

ISLOM KARIMOV BUYUK ISTIQLOL YETAKCHISI

Sarayeva Dilshoda

SamDTU Tibbiy profilaktika

Jamoat salomatligi va Tibbiy biologiya fakulteti

1-kurs 106-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Dilnoza Mamanova Uktamovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning o'zbek davlatchiligiga asos solishi, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarixdan kuch olib, yangi davlatni barpo etganligi, bu jarayonda "o'zbek modeli" deb nomlangan strategik yo'l orqali barqaror iqtisodiyot va farovon hayot uchun qilgan ko'plab ezgu ishlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar. Yetuk shaxs, oliv maqsad, baynalminalchi, o'zbek modeli, g'oya, yuksalish, istiqlol.

Abstract. This article reflects on the founding of the Uzbek statehood by the First President of the Republic of Uzbekistan, Islam Karimov, who drew strength from the history created by his ancestors and established a new state, and in this process, many noble deeds he did for a stable economy and a prosperous life through a strategic path called the "Uzbek model".

Keywords. Mature person, high goal, internationalist, Uzbek model, idea, rise, independence

O'zbek xalqi Allohnning ilohiy marhamatiga sazovor bo'lgan madaniy millatlardan biridir. Yurtimiz tarixida zarhal harflar bilan ko'pgina daholarning nomlari yozilgan. Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Farobi, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur va boshqalar Turon elining daholaridan hisoblanadilar. Bugungi nurafshon hayotimizni boshlab bergen millatimizning buyuk o'g'loni Islom Karimovni ana shunday ulug' bobokalonimizning munosib izdoshi deb atash – bu haqiqatning hayotdagi in'ikosidir. Ajdodlarga xos shijoat, kuch-g'ayrat va mardlik bilan Islom Karimov "Bugun yurtimizda barpo etalayotgan davlat, eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim," degan g'oyani ilgari suradi va xalqimizni istibdodning qora, chirkin ko'lankasidan ozod etadi. Yuqoridagi ulug'vor g'oyaga xalqni ergashtirish, ularning qalblariga ezgulik urug'ini sepish maqsadida "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" – degan qudratli shior bilan "O'ZBEKISTON" deya nomlangan muhtasham yurtning poydevorini mardonavorlik bilan qurdi. Xalqimiz guvoh bo'lib turibdiki, bu g'oya hamda qutlig' shior va oliv maqsad Islom Karimovning o'zbek milliy davlatchilagini barpo etish borasidagi faoliyatining bosh mazmunini belgiladi. "Ma'lumotiga ko'ra iqtisodchi, tarbiyasi jihatdan "zavodda suyagi qotgan", e'tiqodiga ko'ra

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

baynalmilalchi” - deya dunyo siyosatchilar tomonidan ta’riflangan Islom Karimov butunlay yangi tarixiy sharoitlarda davlatchilikning buyuk an’analari bilan jahonning eng ilg‘or tajribalarini uyg‘unlashtirgan holda yangi, o‘zbekona davlatchilik asoslarini yarata oldi. Bu uning davlat va siyosat arbobi sifatidagi tafakkur ko‘lami, noyob iqtidori va ulkan salohiyatini belgilaydi, jahon davlatchiligi maydonida o‘ziga xos va o‘ziga mos nufuzli o‘rin egallaganini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda ilk daf‘a joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi o‘sha paytda yangi O‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida katta yutuq va yangilik edi.

Islom Karimov siyosatchi sifatida ham, shaxs sifatida ham olamni mukammalligicha tasavvur etadi va doimiy ravishda ana shu mukammallikka intilib yashaydi. U kelajakka ishonch bilan qaraydi. G‘oyat asosli va hayotiy mushohadalari bilan ommaning istiqbolga ishonchini kuchaytira oladi. Shuning uchun ham u, eng avvalo, odamlarning ongini o‘zgartirish, ular dunyoqarashiga burilish yasash yo‘li bilan tub islohotlar samaradorligini oshirishga, yuksak ma’naviyatga asoslangan odil jamiyat barpo etishga intiladi. Umuman olganda, Islom Karimov faoliyatidagi qat’iylik, qattiq intizom, yuksak talabchanlik va ulkan ma’suliyatni chuqur his etish ifodasidir. Buni, “Комсомольская правда” gazetasi muhbiri savollariga bergen javoblarida yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, u “Muholiflarim meni diktator qilib ko‘rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman: ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonalari bordir. Ammo, men buni faqat bir narsa bilan izohlamayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish vaqtida, har holda kuchli hokimiyat zarur. Qon to‘kilishiga va qaramaqarshilikka yo‘l qo‘ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolar totuvligi, tinchligi va barqarorligini saqlash uchun shunday bo‘lishi zarur. Bu yo‘lda men jonimni fido qilishga tayyorman” deya o‘z nuqtayi nazarini ochiq-oydin bayon etgan edi. Islom Karimovning boshqaruvchilik faoliyatidagi muhim jihatlardan yana biri shundaki, u doimo bosib o‘tilgan yo‘lga nazar solib boradi. Voqeа hodisalarning borishini sergaklik bilan o‘z ish yuritish usulini ana shu tahlillar asosida boyitib, takomillashtirib boradi. Hech qachon ma’lum bir fikrga absolyut haqiqat deb qaramaydi. Uni doimiy ravishda kuchaytirib, miqyosini kengaytirib, ehtiyoj tug‘ilsa, yangilab boradi. Aynan mana shu sifatlari, mana shu xarakteri uchun biz marhum yutboshimizni e’zozlaymiz va shu o‘rinda Islom Karimovning ushbu jumlalari: “Xalqning dardiga befarq qaraydigan o‘z manfaatlaridan boshqa narsani o‘ylamaydigan, xudbin va tamagir rahbarlar mamlakatimiz ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga to‘sinq bo‘lmoqda. Endi ular bilan murosa qilib bo‘lmaydi,” – degan purma’no fikrlarni o‘rinlidir.

Islom Karimov tomonidan olg‘a surilgan taraqqiyotning “O‘zbek modeli” deb nomlangan strategik yo‘l ham xalq farovonligi va taqdirini ko‘zlab qabul qilindi. Unga ko‘ra, iqtisodiyot butunlayga siyosatdan holi qilindi. Buning ma’nosи iqtisod ham ichki, ham tashqi munosabatlarda mafkuradan holi bo‘lish kerak. Davlat bosh islohotchi bo‘lish kerak, u ustuvor yo‘nalishlarni belgilab siyosatni ishlab chiqarish, uni izchillik bilan o‘tkazishligi

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

shartligi aytilgan. Qonun ustuvorligiga erishish konstitutsiyani istisnosiz hurmat qilish demakdir. Kuchli ijtimoiy himoyalash vazifasi yuklatilganligi bozor iqtisodiyotiga o'tishda evolyutsion yo'lni tanlash kerakligi Islom Karimovning eng ilg'or g'oyalaridandir. Ayni damda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mezonlarni xalqimiz ongi va qalbiga singdira oldi. Xususan, ma'naviyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat kabi barqaror qoidalarni o'zida mujassam etgan muqaddas Islom dinimizning ruhiy poklik, odob-axloq, ezhulik yo'lidagi beqiyos kuch ekanligini O'zbekiston xalqiga anglata oldi.

Biz yoshlar bobolarimizning ulkan mashaqqatlari evaziga kelgan bunday imkoniyatlardan unumli va omilkorlik bilan foydalanishimiz, yaratib berilgan qulayliklarni jamiyatimiz va davlatimiz rivoji uchun sarf etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz zarur. Globallashuv zamonida faqat va faqat ezhulik yo'li, yorug'lik yo'li bo'lgan Vatanparvarlik yo'lidan og'ishmay olg'a intilishimiz zarur. Bunda biz bobomiz Islom Karimovning ibrat maktabi xazinalarini qunt bilan o'qishimiz zarur. Va albatta, xalqning taqdiri va baxtini ko'zlab qanchadan-qancha qahramonliklar ko'rsatgan benazir insonga munosib voris bo'lamiz. Zero, Islom Karimov O'zbekistonda yangi milliy davlatchilik asoschisi hamda O'zbekiston istiqlolining rahnamosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida". O'zbekiston-2013 yil 50-,338-betlar
2. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida". O'zbekiston -1997 yil
3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Ma'naviyat -2008 yil